

KASB-HUNAR MAKTABLEARIDA TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR**BILAN ISHLASHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK****Babadjanova Anbarjon Fayzullayevna**

Olmaliq KHM psixologi

anbarjonbabadjanova@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda kasb-hunar maktablari va ota-onalarning o'rni, ularning o'zaro hamkorligi, tarbiya jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar, ota-onalarga bola tarbiyalashda maslahatlar, tarbiyasi og'ir bolalar bilan olib boriladigan ishlar, ularning samaradorligi, bunday hamkorlikda tarbiyalashning mazmuni, ijobiylar tomonlari, o'quvchilar bilan ularning oilasi bilan munosabatlari haqidagi so'rov nomina natijalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *oila, o'smirlilik, muhit, tarbiya, xulq-atvor, tarbiyasi og'ir o'quvchilar.*

COOPERATION WITH PARENTS IN WORKING WITH STUDENTS WITH DIFFICULT EDUCATION IN VOCATIONAL SCHOOLS**Babadjanova Anbarjon Fayzullayevna**

Almalyk vocational school, psychologist

ABSTRACT

This article discusses the role of vocational schools and parents in working with students with difficult education, their mutual cooperation, possible shortcomings in the education process, advice to parents on raising a child, the results of the questionnaire about the relationship between students and their families.

Key words: *family, adolescence, environment, education, behavior, students with difficult education.*

KIRISH

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatda oila, jamiyat, ta'lim uzviy bog'langan bo'lib, barcha qabul qilinayotgan qonunlar doirasida inson manfaatlari yotadi. Bola tarbiyasi asosida ota-ona va farzand munosabati, o'quvchining

jamiyatdagi o‘rni, mahalla va maktab omillari yotadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko‘philagini yoshlar tashkil etishini hisobga olib, ularning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Jumladan, tarbiyasi og‘ir bolalar jamiyatdan chetda qolib ketmasligi, o‘z mavqeyiga ega shaxslarga aylanishi kerak. Umumiy ta’lim va kasb-hunar maktablarida o‘qish davomida bu toifa o‘quvchilar odatiyalaridan farq qiladi. Ular bilan ishslashda pedagogdan katta sabr, bilim va ko‘nikma talab qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘smirning shaxsiyatini rivojlantirishda uning atrof muhitga, ijtimoiy hodisalarga, tevaragidagi kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o‘smirda muayyan narsalarga nisbatan munosabat shakllangan bo‘ladi. Osmir xulq atvorini baholashda kattalarning qat’iyatliligi, prinsipialligi bunday o‘quvchi tomonidan tahlil qilinadi. Shuning uchun uni qo‘llab-quvvatlashda, rag‘batlantirish va jazolash usullarida oqilona, o‘z vaqtida qo‘llanilishi kerak. Bunda bir qancha tadqiqotchilarning nazariyalari o‘rganildi va amalda qo‘llashga harakat qilindi. O‘smirlilik davrining yirik tadqiqotchilaridan biri nemis psixolog E.Shpranger o‘smirlilik yoshi qizlarda 14-21, o‘g‘il bolalarda 13-19 yoshlargacha davom etishini, uning birinchi bosqichi 14-17 yoshlarga to‘g‘ri kelishini ta’kidlaydi[1,59]. Bugungi kunda ta’lim jarayonida “tarbiyasi qiyin o‘smirlar” iborasi tez-tez uchrab turadi. Bunday o‘smirlar sirasiga kiruvchi yoshlar odatiy yoshlardan farq qiladi. Ularning bu ahvolga kelishiga turli sabablar mavjud:

- *Shaxsning biologik kamchiliklari;*
- *Shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;*
- *Maktab ta’limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;*
- *Maktabdan tashqari muhitdagi kamchiliklar;*
- *Psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;*

Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘smirlilik davrida ular tomonidan sodir etiladigan har qanday xatti-harakat aktlari: aksilijsimoiy xulq-atvor, pedagogik qarovsizlik, moslasha olmaydigan xulq, axloqsiz xulq, deviant xulq, autodestruktiv (o‘zini o‘zi fosh qilish) xulq va hokazolar o‘tish davrining o‘ziga xos odat tusiga qirib qolgan tartib shakli sifatida tan olinadi[2,8].

Statistika ma’lumotlariga qaraganda, tarbiyasi og‘ir deb qaraluvchi yoshlarning IQ darajasi ham past bo‘lar ekan. Ko‘rinib turibdiki, ularni odatiy yoshlar qatoriga olib kirishda ikki tomonlama harakat qilinadi: ham ilmiy, ham tarbiyaviy. Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning o‘zligini anglashda “Men” timsoli alohida o‘rin tutadi. Tarbiyasi qiyinlikning vujudga kelishi va uning kechishini subyekt tomonidan anglanishi ular bilan olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodiagnostik, psixokorreksion ishlarning samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[3, 76].

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'yi-harakatlarini birlashtirish maqsadida vatanimizda 1993-yilda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Kontsepsiysi yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturamal bo'ldi. Bu konsepsiya asosida umumta'lim maktablari bilan o'zini o'zi boshqarish organlari va oila institutlari o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu esa o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini o'z vaqtida aniqlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ta'limning keyingi bosqichiga yo'naltirishda muhim omil bo'lmoqda. Ayni paytda "oila-mahalla-maktab" hamkorligi oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ularda ulg'ayayotgan o'g'il-qizlarni zamon talablari asosida, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'z samarasini beryapti.

Maktab, kasb-hunar maktablarida to'g'ri yo'naltira olingen o'quvchilar qiyinchilik bilan bo'lsada o'z oldilariga maqsad qo'yib, kelajak kasblarini egallay olishadi. Psixolog bolalar bilan ishlashda ularning bu ahvolga kelishidagi tub sabablarni o'rghanadi, ularning ota-onalari bilan hamkrolikda yechim topadi. Ota-onalar bilan ishlashda mahalla ham asosiy o'rinn tutadi. Bola atrof-muhiti, do'stlari xulq-atvoridan o'rnak oladi, rivojlanadi.

Tarbiyasi og'ir bolalar – bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z holicha tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondosha bilmaslik oqibatida paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, normal ta'lim va tarbiya jarayonidan chetda qolgan, o'qituvchilar, ota-onalar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnatma olmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning to'g'ri yo'llarini topa bilmagan bolalar – tarbiyasi og'ir bolalar turiga kiradi.

Tarbiyasi og'ir bolalardagi fanni o'rghanishga bo'lgan salbiy munosabatni bartaraf etish uchun bolalarga nisbatan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, ularda o'qishga nisbatan hissiy va intiluvchan sifatlarini shakllantirish lozim bo'ladi. Oilaviy tarbiya – bu ota-on, aka-uka, opa-singil va qarindoshlar kuchi bilan, aniq oilaviy sharoitlarda amalga oshiriladigan, ko'p qirrali, murakkab ta'lim-tarbiya tizimi hisoblanadi. Uyda bo'layotgan holatlar o'smirlilik yoshidagi bolaga katta ta'sir o'tkazadi. Ota-onan farzandini hammasini oldida izza qilmasligi, yolg'iz qolganida unga tushunarli tarzda uqtirishi, har tomonlama o'rnak bo'lishi zarur. Qolaversa boshqalarni hurmat qilishi va jamoat joyida o'zini tutishi – ota-onan tarbiyasining aksi ham.

Pedagog A.S.Makarenko ta'kidlashida, tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda ularning qanday holatda va kimlar bilan yashashi muhim o'rinn tutadi[4,91-95]. Ota-onasi bilan yashaydigan va bolalar uyida yashaydigan o'smirlar bir-biridan tubdan farq

qiladi. Bittasida shaxsiy xona, dars xonasi va tug‘ishganlari bilan muloqot mavjud bo‘lsa, boshqasida yuqoridagilar barcha uchun umumiy bo‘ladi. Bu esa sinf xonasida ham aks etadi. Shu bilan birga ular juda sezgir va mehrga tashna bo‘ladi. O‘z ustozlarini diqqat bilan kuzatishadi va tezda xulosa chiqarishadi. Bunday holatlarda pedagog bergen so‘zining ustidan chiqishi va barcha bilan bir xil muloqot qilishi zarur.

O‘qituvchi sinf xonasiga kirib kelishi bilanoq ular bilan ishlash boshlanadi. Birinchidan, bolalar uni kuzatadi va “skanerlaydi”. Ya’ni unga qanday ustoz sifatida muomala qilish mumkinligi haqida bolada tushunchalar paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, muloqot jarayonida bola ustozining gaplari va o‘zini tutishi ishonchli ekanligini ma’lum foizlarda his qiladi va shunga javoban suhbat qiladi. Uchinchidan, pedagogning medotik qobiliyatlari. Dars davomida va darsdan bo‘sh vaqtlarida bola bilan ishlashdagi mahorat katta ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni o‘rganishda kinolavhalar, yuridik varaqqa, ishontirish, rag‘batlantirish, bo‘ysundirish, qo‘rqtish singari usullardan foydalaniladi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan alohida-alohida suhbat o‘tkazish, ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishning eng samarali usulidir. O‘tkazilgan suhbatlar o‘smirning psixik dunyosiga shunday nozik ta’sir qilish kerakki, natijada unda vijdon azobi, o‘ng‘aysizlik tuyg‘usi vujudga kelsin. Qolaversa ular tarbiyasiga yaqin mavzulardagi konlar va pyesalarni birgalikda ko‘rish, ushbu holatlatga chetdan nazar solish ularga o‘zlarini kuzatish imkonini beradi va bir qancha ijobjiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. O‘smir shaxsiyatiga tegadigan muomalada bo‘lish man etiladi. Suhbat davomida iliq psixologik muhit, do‘stona munosabat bo‘lmog‘i shart.

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni, tipologik xususiyatlariga ko‘ra, bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin. Tarbiyasi “qiyin” o‘smirlarning birinchi guruhi *orsizlar* yoki *subutsizlar* deyiladi[5,9]. Ular bila turib qonun qoidalarni buzadilar, noma’qul ishlarni qiladilar. Ular o‘zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Bunday bolalar betga chopar, o‘jar tabiatli, rahm-shafqatsiz, “zo‘ravon” bo‘ladilar. Ikkinci guruhga mansub tarbiyasi og‘ir o‘smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e’tiqodga, barqaror his-tuyg‘uga ega emasliklari sababli “orqa”da turib qoidani buzadilar. Ular jamoa oldida katta va’da beradilar, biroq, ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng, bergen va’dasini butunlay unutadilar. Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi og‘ir o‘smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo‘liga kirib qoladilar. Ular qilmishlari uchun afsus-nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Ulardagi axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo‘ladi. Injiq tabiatli o‘smirlar

to‘rtinchi guruhga mansub bo‘lib, sinfda,tengqurlari orasida o‘z o‘rnini topa olmaganidan qayg‘uradilar. Shu bois ginaxon, arazchi bo‘ladilar.

Pedagog ular bilan ishlashda juda ehtiyyotlik bilan muloqot qilishi, ularni o‘zida ishonchi ortiga sabab bo‘lishi kerak. Qo‘pol muomala qilingan bola odamlarga nisbatan o‘zida adovat saqlab, keyinchalik kimgadir zarar keltirishi mumkin. Ustoz va o‘smir o‘rtasidagi muloqot do‘stona va bir paytning o‘zida hurmatga asoslanishi lozim. Yaqinda Olmaliq shahar kasb-hunar maktabida “Oilaviy munosabatlaringiz qanday?” nomida so‘rovnama o‘tkazildi. Natijada esa ko‘pgina o‘quvchilar “bilmayman” javobini berishgan. Ko‘rinib turibdiki, ular ko‘pgina savollarga umumiy javob ebrishni xohlashgan va oilada qanday munosabatda ekanliklarini ham o‘zlar yaxshi bilmaydi. Bunga ota-onalarning ish bilan bandligi va e’tiborsizligi sababdir.

XULOSA

Farzandlarimizni ma’naviyatli qilib tarbiyalash, kasb-hunar egallab, jamiyatga nafi tegadigan inson bo‘lib kamol topishida ota-onalarga mahalla va ta’lim muassasasi eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Yoshlarimiz ma’naviyatini shakllantirishda oiladagi muhit, ona tarbiyasi, otalar namunasi va nasihatni, keyinchalik mahallada, umumta’lim maktablarida, kasb-hunar maktablari va oliy o‘quv yurtlarida beriladigan ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda tarbiyachi va pedagoglarimizning oldida turgan asosiy vazifasi bu bolalarimizni tarbiyali, bilimli, ma’naviyatli, har tomonlama sog‘lom va jamiyatimizga nafi tegadigan komil avlodlar etib tarbiyalashdir. Shunday ekan bu borada oila va mahallaning ham o‘z o‘rni bor. Birgalikda hamkorlik bilan harakat qilinsagina kerakli natijaga erisha olamiz. Shuni unutmasligimiz kerakki, bolada xulqi og‘irlik namoyon bo‘lishining muhim omili – bu uning yomon xulqli tengdoshlaridir. Biz o‘zimizning bolamizga yaxshi tarbiya berib, uning yonidagi do‘srlariga nazar solmasdan, unga yuqori baho bera olmaymiz. Chunki maktab yoshiga yetgan bolalar kunining yarmini o‘qish faoliyatiga sarflaydi. Maktabda do‘srlari orasida turlicha axborotlarga, hatti-harakatlarga duch keladi, bu narsalar uning xulqiga qanday ta’sir ko‘rsatishini oldindan aniqlay olmaymiz. Ta’lim muassasasi ham bir oila bo‘lib, unda ta’lim-tarbiya oladigan barcha o‘quvchilar bizning farzandlarimizdir. Ularni kamol toptirishda barchamiz birdek mas’ulmiz va bunda ularga mos va xos sharoit yaratib berish vazifasi turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'ozev E.G'. Ontogenet psixologiyasi. Darslik - T.: Noshir, 2010 - 360 b
2. Boboqulova G. Tarbiyasi og'ir o'quvchilarni oila, maktab, mahalla hamkorligida tarbiyalashning mazmuni. Образование наука и инновационные идеи в мире - Международный научный электронный журнал. Выпуск журнала – №5, Май 2023.
3. G'oziev E.G. Tulaganova G.K. Tarbiyasi qiyin o'smirlar . T.: «Universitet» 2005.
4. Мусина В.Е. А.С. Макаренко об организации коллективной деятельности обучающихся на уроке и во вне урочное время / В.Е. Мусина, А.А. Купина // Проблемы внедрения результатов инновационных разработок : сб. ст. Междунар. науч.-практ. конф., Самара, 22 июня 2018 г. – Уфа, 2018. – С. 91-95.
5. Djumaniyozova M.X. O'smirlik davrida uchraydigan tarbiyasi qiyinlik jihatlari. “Uchinchi Renessansda ilmiy-amaliy tadqiqolarning dolzARB muammolari” Respublika onlayn konferensiyasi. 9-b.